

Navoiy viloyat statistika boshqarmasi



2018 yil yanvar-sentyabr oylarida Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **16244,8 mlrd. so'mni**, o'sish **2,4 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **-101,2 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **11,6 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **14,4%**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatimiz korxonalaridan tomonidan **16244,8** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **102,4 %** ni tashkil etdi.

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **66,4 %** tashkil etdi. Sanoat ishlab chiqarishning oshishiga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini ham munosib hissa qo'shdi, ularning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **27,8 %**, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,7 %** tashkil etdi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi





Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **4517,5** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **27,8** % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2018 yilning yanvar-sentyabr oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **10791,3** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **66,4** % ni tashkil etdi.

Yanvar-sentyabr oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
Portlandsement, ming tonna			
2775,2		2777,0	100,1
Shifer, tonna			
3349,20		23751,1	709,2
Ammoniy nitrat, ming tonna			
144,61		165,27	114,3

2017 yilda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2018 yilda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
-------------------------------	---	-------------------------------	----------------------

Temir beton, ming tonna

21,170



38,667

182,6

Paxta tolasi, ming tonna

25,136



18,814

74,8



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni kondittsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **876,1** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **5,4** % ni) tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **59,9** mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,4** % ni) tashkil etdi.




Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **1877,4** mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan **101,2** %, jami sanoatdagi ulushi esa **11,6** % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




Yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.


Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Navoiy shahri (viloytda sanoat ishlab chiqarish hajmning 82,2 % ulushini), Karmana (9,1 %), Qiziltepa (2,8 %), Xatirchi (2,0 %), Navbahor (1,4 %), tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlarda sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Shu bilan birga eng kam ulush Tomdi (0,1 %), Konimex (0,3 %), Uchquduq (0,4 %), Nurota (0,7 %) tumanlari va Zarafshon (0,9 %) shahriga to'g'ri keladi.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi o'sish sur'atlari, %




Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Karmana tumani (2017 yilning yanvar-sentyabr oylariqa nisbatan 120,3 %), Qiziltepa (108,4 %), Uchquduq (100,4%) tumanlari va Zarafshon (104,5 %), Navoiy (101,1 %) shaharlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlari va o'sish sur'atlari



2018 yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol tovarlari va o'sish sur'atlari

Aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Navoiy shahrida (4336,3 ming so'm), Karmana (2870,9 ming so'm), Uchquduq (1523,4 ming so'm) va Qiziltepa (1446,0 ming so'm) tumanlarida o'rtacha ko'rsatkichidan ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.




Shahar va tuman kesimida aholi jon boshiga o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining yuqori o'sish sur'atlari Karmana tumaniga (2017 yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 120,6 %) ga kuzatildi. Shu bilan birga, Konimex (91,7%), Nurota (89,5%) tumanlarida va Zarafshon (89,6%) shahrida o'sishning past sur'atlari kuzatildi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishi keskin faollashdi. Natijada ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 14,4 % tashkil etmadi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi Navoiy shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 3,3 %), Karmana (47,8 %), Navbahor (77,7 %) ,Xatirchi (84,3 %),Qiziltepa (84,5 %), Nurota (98,8 %), Konimex (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Uchquduq (100,0 %), tumanlarida hamda Zarafshon shahrida (76,2%) kuzatildi.



Bugungi kunda viloyatimizda 1731 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 550 tasi Navoiy shahrida, 306 tasi Karmana, 244 tasi Nurota, 187 tasi Qiziltepa, 121 tasi Xatirchi, 83 tasi Navbahor, 69 tasi Uchquduq, 38 tasi Tomdi, 34 tasi Konimex tumanlarida va 99 tasi Zarafshon shahrida joylashgan.

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni



Joriy yilning yanvar-sentyabr oylari davomida viloyatimizda **292** ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan **22,9** % Navoiy shahriga to'g'ri keladi.